

# TONG



# yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

2011-yil  
8-avgust  
N:32  
(66833)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

## Orzulari oydin qiz

Kichik tadbirdor

Nodirabegim Tosheva Buxoro shahridagi 37-iqtisodga yo'naltirilgan maxsus məktəbda a'lo baholarga təhsil oladı. U odatiga ko'ra bu yilgi yozgi tilda ham Buxoro tumanida yashaydigan Zulayho buvijonisinikiga otlandı. Dugonaları Lola, Rushana, Maftunalar bilan kelgan nabirasını aya quchoq olib kutib oldı. Bu qızaloqlarga yoz chillasining issig'i ham sezilmayaptı. Chunki ular kun bo'yı ayaning kattakon bog'idan chiqishmaydi. Mevalarni terishadi, ulardan qoqi qilib qo'yishadi. Keyin esa buvijonning yoniga oshiqishadi. Boisi, Zulayho aya ularga palak, so'zana, choyshab, yostiq jildlar tikishni o'rgatadi-da.

Yoshi saksandan oshsa-da, qadoq qo'llaridan igna tushmay kelayotgan Zulayho ayaning ko'zoynak taqmay kashta tikishlariga ham hayrat, ham havas bilan boqasan kishi. Bog'da yosħlar bilan barobar mehnat qiladilar. Shunday serg'ayrat, umri mehnatda o'tayotgan onaxonning nabirasi ham unga munosib bo'lishi kerak, shunday emasmi? Shunday! Nodirabegim ham juda tirishqoq qiz. Ularning hovlisini misli gulzor deysiz. O'zi o'stirayotgan chiroylı, rango-rang gullardan tikayotgan so'zana-yu palaklariga, yelpig'ich-u sumkachalariga nusha ko'chiradi, nashqlarida aks ettirishga harakat qiladi. Buvijonisi ularnikiga mehmonga kelsa, Nodira uchun haqiqiy bayram bo'ladi. Zumda dugonalarini chaqirib kelib, buvijonisidan kashtachilik sirlarini o'rganishga kirishga ketishadi. Chevar dugonalar o'z qo'llari bilan tikkan buyumlaridan məktəbda ko'rgazma tashkil qilishga ham ulgurishdi. «Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili» munosabati bilan tashkil qilingan «Biznesimiz maliklari» nomli ko'rgazmada qatnashib, savdadan tushgan pullariga turli matolar, ip va munchoqlar, ta'tilda o'qishlari uchun ko'plab kitoblar sotib olishdi. Shu tariqa tadbirdorlikning ham hadisini olayotgan Nodirabeginning kelajakdagı rejaları ulkan: milliy kashtachiligidir an'analarini davom ettirib, zamonaviy uslubdagi liboslarni kashtalar bilan bezatishni yo'lda qo'ymoqchi. Ishlab chiqargan mahsulotlarini esa chet ellarga ham eksport qilib, yurtimiz iqtisodiga munosib hissa qo'shamoqchi.

Biz nima ham derdik, yuzing kabi oydeq oppoq orzularing ijobat bo'lsin, Nodirabegim!

O'z muxbirimiz

### USHBU SONDA:

0'g'limdan  
saboq oldim

3-bet

920  
diametrli  
daraxt

4-bet

Uyimizda  
«SIRK»

7-bet



Istiqlol solnomasi

# YURT SHA'NI QO'LINGIZDA

Istiqlol yillarda ta'limga oid qator Davlat umummilliy dasturlarining amalda qo'llanishi, ko'plab yangi maktablar qurilishiga, joriyalarining zamonaviy tipda rekonstruksiya qilinishi yoxud ta'mirlanishiga turtki bo'ldi. Shu o'rinda raqamlarga murojaat qilsak: Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan 2004-2009-yillarda maktab ta'limi rivojlantirish umummilliy dasturi doirasida 8501 ta maktabda qurilish-



ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. 351 ta yangi maktablar qurilib, 2470 tasi kapital rekonstruksiya, 3608 tasi kapital va 2072 tasi joriy ta'mirdan chiqarildi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan 9779 ta maktablarda 4.7 million o'quvchi tahsil olyapti. Ularga 423.574 nafar tajribali, bilimdon o'qituvchilar saboq bermoddalar.

Respublikamiz maktablari o'tasida tezkor axborot almashish tizimi va yagona ta'lif tarmog'ini tashkil etish maqsadida, Multimedia umumta'lif dasturlarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Bugungi kunda kutubxonalar soni 8603 tani tashkil etadi. Qator ilm maskanlarida axborot resurs markazlari faoliyati yo'lgan qo'yilgan. Ayniqsa, har yili maktabga qadam qo'yayotgan 1-sinf o'quvchilariga «Prezident sovg'asi»ning taqdim etilishi diqqatga sazovordir.

Bolalar sportini rivojlantirish ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'quvchilarni

sport bilan munzazam shug'ullanishlari uchun ko'plab sport inshootlari qad rostladi. Shulardan 62 ta suzish havzasi (20 tasi qishloq joyolarida), 1796 ta maktab sport zallari qurilishi va 242 ta sport inshootlarini rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiytexnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi» qabul qilindi. Bu dastur asosida 2009-2010-yillarda 14 ta yangi musiqa maktablari qurilib, 38 tasi kapital rekonstruksiya qilindi. Joriy yilda esa yana 65 ta ana shunday maktablar bolalar uchun Mustaqilimizning 20 yillik to'yiga to'yon bo'lish arafasida turbdidi.

Bunday imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlarga javoban o'quvchilar ham ilm, fan, san'at, sport, qo'ying-chi, barcha sohalarda ulkan yutuqlarni qo'liga kiritishyapti.

2010-yilda 43 nafar iste'dodli yoshlarimiz Fransiya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Ruminiya, Rossiya, Ozarbayjon singari yirik davlatlarda o'tkazilgan turli tanlovlarda g'olib bo'lishdi.

Yuqorida keltirilganlar mustaqilligimizning eng aziz ne'mat, xolos. Bu sa'y-harakatlarning bari - siz yosh avlodning barkamol ulg'ayishingiz uchundir. Shunday ekan, izlanishda, ilm cho'qqilarini egallashda davom eting.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Chevar qiz Madina ham ana shunday qo'li gul tikuvchilardan hisoblanadi. Bolalikdan badiiy kashtachilikka mehr qo'yan qizaloq maktabi qoshidagi «Ustoz-shogird» to'garagida ustozni Umida Mustafoyevadan xalq hunarmandchiligining sir-asrорларини qunt bilan о'ргана борди...

Madinaning so'zanalarida nur sochib turgan quyosh, zangori osmon va yetti rangdag'i kamalak jilosi o'z aksini topardi. Uning nozik barmoqlari so'zanaga go'yo ertangi kun orzularini qo'shib tikayotgandek edi. Serg'ayrat dugonalar Nazira Mo'minova, Farida Sherqulova va Laziza Hakimova ham Buyuk Ipak yo'li, Jizzax shahridagi «Xotira maydoni» va istirohat bog'i tasvirlarini yuksak mahorat bilan matoga naqshlab, muxlislar e'tiborini qozondilar.

Yangilik yaratish yo'lida finmay izlanayotgan Madina shahar maktabları o'tasida o'tkazilgan «Hunarmand-2009» ko'rik-tanlovi g'olib bo'ldi. Yosh qalbidagi kashta-

chilikka bo'lgan ishtiyoqini o'zining she'riy misralarida ifodalashga harakat qildi.

Jizzax shahridagi 22-ixtisos-lashtirilgan umumta'lif maktabi

bitiruvchisi Madina O'rınboyeva

respublika nashrlarida o'z ijod

namunalari bilan

q a t n a s h i b

keladi. Uning

«P a r v o z

etgum», «Bulbul

xonishi» nomli

she'rlar to'plami

chop etilgan. O'tgan

yili viloyatda o'tkazilgan

«Yosh iqtidorlar» ko'rik-

tanlovida «Eng yaxshi ijodkor»

yo'naliishi bo'yicha g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

2010-2011-o'quv yilida esa ona tili va

adabiyot fanlaridan o'tkazilgan shahar

# GOLLANDIYADAN XUSHXABAR

Mustaqil O'zbekistonimizning 20 yillik to'yi arafasida bir xushxabardan ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Buxoro Davlat universiteti qoshidagi 3-sonli akademik litsey o'quvchisi Javlon Isomurodov Gollandiyada o'tkazilgan 52-Butunjahon fanlar olimpiadasi g'olib bo'ldi.

Javlonbek 105 mamlakatdan 600 nafar ishtirokchi kuch sinashgan ushbu xalqaro olimpiadada matematika fani bo'yicha ishtirok etib, 3-o'rinni qo'lga kiritib, yurtimiz dovrug'ini ko'klarga ko'tardi.

Javlonbekni bu yutug'i bilan muborak-bod etib, unga kelgusida bundan-da ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz.

GORIFJONOVA

«Obod mahallam mening» insholar tanloviga

## BIZNING HAM HISSAMIZ BOR!

Mahallamizda barcha oilalar ahil-inoq yashaydilar. Ota-bobolarimiz bejizga mahallang - otang, mahallang - onang, deyishmagan. Chunki barchanining yaxshi-yomon kuniga birinchi navbatda mahalladoshlari yaraydi. Prezidentimiz ham mahallalarga alohida urg'u berib, uning jamiatidagi o'mini oshirish, mahalla guzarlarini tubdan yangilash maqsadida ko'plab islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Ayniqsa, mahalla raisligiga mahallada obro - e'tiborga ega bo'lgan, ko'pni ko'rgan oqsoqollar saylanishi maqsadga muvofiq bo'ldi. Har safar bayramlar arafasida mahallamizda hasharlar uyshtirilish turildi. Unda biz yoshlar ham alohida jonbozlik ko'rsatamiz. Chunki ko'chamizning, mahallamizning obodligi bi yerda qanday odamlar yashashidan dalolat beradi. Xullas, mahallamiz kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Bunda bizning hissamiz borligidan mammunuz.

Go'zal QOSIMOVA, Jizzax shahridagi 24-umumta'lif maktabi o'quvchisi

## SO'ZANAGA ORZULARI BITILGAN

chilikka bo'lgan ishtiyoqini o'zining she'riy misralarida ifodalashga harakat qildi.

Jizzax shahridagi 22-ixtisos-lashtirilgan umumta'lif maktabi

bitiruvchisi Madina O'rınboyeva

respublika nashrlarida o'z ijod

olimpiadasida birinchilikni egallab, viloyat bosqichida qatnashish huquqini oldi. Maktabdagisi «Munavvar tuyg'ular» nomli devoriy gazetaning qiziqarli, bezakli chiqishida Madinaning alohida hissasi bor.

Abdulla SAIDOV



Suratda: Madina O'rınboyeva (o'rtada) dugonalari bilan

Aziz bolajonlar! Sizlarning mukammal bilim olishingiz, kelajakda o'zingiz sevgan kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishingiz uchun mamlakatimizda ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilayotganidan barchamiz xabardormiz. Poytaxtimizdagi «Shodlik Palace» mehmonxonasining anjumanlar zalida bo'lib o'tgan «Kamolot» YOIH xodimlari, taniqli olimlar, markaziy nashrlar, agentliklar hamda teleradiokanallarda faoliyat yurituvchi jurnalistlar ishtirot etgan mazkur o'quv-uslubiy seminar «Mamlakatimizda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda «Kamolot» YOIHning o'rni va vazifalari» mavzusiga bag'ishlandi. Seminar-treningda «Kamolot» YOIH tomonidan yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarlarni egallashga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash va tadbirdorlikka jaib etish borasida amalga oshirilmoqda. Shu bilan turli loyihalar, tanlovlardan biznes g'oyalari tashkillashtirilib, yoshlarga kasb tanlash borasida yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berib borilmoqda.

O'smir yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ularni ish bilan ta'minlashga doir masalalar xususida shoir Minhojiddin Mirzo quyidagilarni gapirib o'tdilar:

## AMOLOT - YOSHLAR SUYANCHI



- Yurtimizda bolalar va yoshlar huquqlarini himoyalashning qonuniy asoslari yaratilgan, uning ma'muriy-tashkiliy tizimi ishlab chiqilgan, bolalarning ta'lim olishi uchun uzlusiz ta'lim tizimi joriy etilgan. Bu esa mamlakatimizda bola huquqlarini himoyalashning mukammal mexanizmi yaratilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning asosiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar tuzildi. Komissiya tarkibiga kiritilgan davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasiga ham keng yondashmoqda.

«Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi raisi Bahodir G'aniyev yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida qilinayotgan ishlar haqida ma'lumot berib o'tdilar:

- Ayni kunlarda «Kamolot» YOIHning 14 ta hududiy, 194 ta mahalliy bo'lim Kengashlari hamda 15617 ta Boshlang'ich tashkiloti samarali faoliyat olib bormoqda. Ushbu bo'lim va tashkilotlar tomonidan yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarlarni egallashga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ish bilan ta'minlash va tadbirdorlikka jaib etish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, turli loyihalar, tanlovlardan biznes g'oyalari tashkillashtirilib, yoshlarga kasb tanlash borasida yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berib borilmoqda.

Yoshlarning ishsiz qolmasliklari uchun O'zbekiston Milliy universiteti hamda «Kamolot» YOIH qanday ishlarni amalga oshirmoqda, degan savolimizga universitetning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Qahramon Quranboyevdan quyidagicha javob oldik:

- Bugungi kunda «Kamolot» YOIH bilan hamkorlikda iqtidorli yoshlarning orzu-istiklalarini ro'yobga chiqarishgaxizmat qiladigan loyihibar va tadbirlar tashkil etib, internet sahifalari orqali yoshlarni bo'sh ish o'rinnariga joylashtirishni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqdamiz.

Ikki kun davom etgan o'quv-seminarda jurnalistlar o'zaro fikr almashib, o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga javob olishga muvaffaq bo'ldilar.

Gulyuz BAHODIR qizi



Ko'cha darvozamiz oldidan kattagina ariq o'tgan. Mahalladagilar tomorqalarimizni sug 'orishda o'shandan foydalanimiz. Ariqning atroflarini ajiriq va boshqa o'tlar qoplab olganidan suvning ravon oqishi biroz pasayib qolgandi. Hozirda ta'tilda yurgan o'g'limga bir-ikki bor tozalab qo'yishni tayinladim. O'zimning esa hatto dam olish kunlariyani qo'limga tegmasa deng. Aksiga olib, o'g'ilboy ham shu ishga kirishay demasdi. Nonushta mahali sal qattiqroq gapirdim. O'g'lim ishdan kelishingizgacha siz aytgandim qilib qo'yaman, deya va'dani quyuq qilib yubordi. Ochig'i, o'g'limning bu gapidan biroz ach-chig'im keldi. Qariyb o'ttiz qadamcha keladigan joyni yosh bola bir kunda epa-qaga keltira olarkanmi?! Onasi ham beparvogina kulib turganini ko'rib, battar jahlim chiqa deng. Indamay ishga ketdim. Kechqurun kelay, bir ta'sirini berib qo'yaman, deb o'zimni bosdim.

Ishxonaga borgach, bu gaplar yodimdan

chiqib, ishga sho'ng'idim. Ishdan qaytayotganda esa yana ertalabki gap yodimga tushdi. O'g'limda nima ayb?! O'zim ham hafsalasizlik qilyapman-ku. Ertalab barvaqtroq turib, o'zim shu ishni boshlab bersam bo'ladi-ku. Bundan ruhlangan o'g'lim ham qarab turmasmidi?

Ko'chamiz tomon burilarkanman, hozir ko'zim ajiriq bosgan arig'imizga tushishidan ta'bim xira bo'ldi. Ishonasizmi, darvozamizga yaqinlashib, tappa to'xtab

## O'G'LIMDAN SABOQ OLDIM



goldim. Uyimiz oldidagi ariqning ikki tomoni qirtishlab tozalab qo'yilibdi, bir dono xas ham ko'rinxaydi. Ariqdan sharqirab oqayotgan zilol suv biram tiniq, biram shaffofki... Uyga otlib kirdim. Ishni do'ndirib qo'ygan o'g'ilboy onasi bilan televizor ko'rib o'tiribdi. Charchagan odamgayam o'xshamaydi. Ishonmay turibsiz-a? Birov aytса,



## YUTUQLAR SARHISOEL

Kuni kecha «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuman, shahar bo'lmlarining navbatdagi V hisobot-saylov konferensiylari yakunlari hamda hududiy konferensiylar boshlanishiga bag'ishlangan matbuot anjumanini bo'lib o'tdi.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topgan ilk kunlardanoq Prezidentimiz «Kamolot» - yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lsin», deya tilak bildirgan edilar.



Bugungi kunda ushbu tilak ijobat bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'l-maydi. Harakat a'zolari Vatanimizda a m a l g a o s h i r i l a y o t g a n islohotlar va bunyodkorlik ishlari o'zlarining munosib h i s s a l a r i n i q o'shmoq dalar.

Harakat homiyligidagi «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun» shiori ostida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 2,2 milliondan ziyod bolajonlarni o'z safida birlashtirgan «Kamalak» Bolalar tashkiloti ham samarali faoliyat olib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, Harakatning navbatdagi III Qurultoyi shu yilning noyabr oyida o'tkazilishi belgilangan.

2011-yil iyun-iyul oylarida o'tkazilgan 194 ta mahalliy bo'limlarning V konferensiyalarida Harakatning tuman, shahar Kengashlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni xolis tahlil qilindi va oldinda turgan dolzarb vazifalar belgilandi.

Bo'lib o'tgan konferensiylarda yurt taqdiriga o'zini daxldor deb bilguchchi bilimli va shijoatli yoshlar ijtimoiy faolligining yurtimiz rivojiga ta'siri, Vatan ravnagi va kelajagidagi o'rnii masalasiga ham alohida to'xtalib o'tildi.

Muzaffar AHMEDOV

men ham ishonmasdim. Endi buning sirini sizga ochmasam bo'lmaydi: o'g'lim uch-to'rtta sinfdoshlari bilan hashar qilishibdi. Ularda shunday an'ana bor ekan.

Bu gaplarni eshitib, beixtiyor yoshligim, ota hovlimiz yodimga tushdi. Hovlimiz o'tasidan katta ariq o'tgan edi. Butun mahalla o'sha ariqdan, tog'dan keladigan toza suvdan ichardi. Shuning uchun ham mahalla-doshlarimiz tez-tez hashar uyuştirib, ariqni tozalab turishardi. Erkagi yo'q hovlilarning arig'ini ham

ko'plashib chinniday qilib qo'yishardi. Biz balalarga bu juda qiziq edi.

Hamasidan zo'ri bir xonadondan issiq choy, bittasidan suyuq ovqat, meva-chevalar chiqardi. Biz ham kattalarga qarashib charchamaslik. Otabobolarimizdan qolgan xayrli udumlar, qadriyatlar bolalarimizning murg'ak qalblaridan ham joy olayotganidan quvondim. Mahalla oqsoqoli bilan maslahatlashib, burungiday hashar uyuştirdik. Ko'chamizdan o'tgan uzun ariq bir zumda tozalanib, mahallamiz yanayam fayzli bo'lib ketdi.

Yusuf ABDULLAYEV

Qashqadaryo viloyat ixtisoslash-tirilgan san'at maktab-internati o'quvchilari Mustaqilligimizning 20 yilligiga bag'ishlab Mustaqillik monumenti eskizini tayyorlashdi. Bu gapni eshitdig'u, maktab-internat tomon yo'l oldik.

Bizni maktab direktori, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi a'zosi, Akademiyaning kumush va oltin medallar sohibi, rang-tasvirchi rassom Toshpo'lat Namozov iliq qarshi oldi.

– 140 o'rinni maktab-internatimizga iqtidorli bolalar 5- sinfdan qabul qilinadi. Bilim maskanimizda, asosan, Kitob, Shahrabsabz, G'uzor, Yakkabog', Chiroqli tumanlaridagi eng iste'dodli o'quvchilar tahsil olishadi, – deydi maktab rabbari. – O'quvchilarim bilan birgalikda Mustaqillik monumenti eskizini tayyorladik. Istiqlol tantanalari o'tadigan Amir Temur

## MUSTAQILLIK MONUMENTI

### o'quvchilar nigohida

maydonidagi sahna bezaklarini yaratishda Sohibqiron hayoti va faoliyati bilan bog'liq manbalarga murojaat qildik. Bobomiz ruhi bizga kuch-quvvat bag'ishladi.

Internatda yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan ekan: iqtidorli o'quvchilarining ijodiy ko'rgazmasi o'z qishlog'iда tashkil qilinadi. Yaqinda 8-sinf o'quvchisi Jahongir Qilichevning ijodiy ishlari ko'rgazmasi o'zi tug'ilib o'sgan Chiroqli tumanidagi Chiyal qishlog'iда bo'lib o'tdi. Farzandining yutuqlaridan quvongan ota qishloq doshlariga osh berdi. Chunki Jahongirming amaliy san'at, rang tasvir hamda turli kompozitsiyalarni mahorat bilan yaratishida, albatta, qishloq doshlarining hissasi beqiyos-da!

San'at maktab-internati o'quvchilar nafaqat Respublika, balki xalqaro miqyosdagi tanlovlardaga ham ishtirot etib, g'oliblik bayrog'ini ko'tarmoqdalar. Jumladan, Sarvar Rahimov Hindistonda har yili muttazam ravishda o'tkazilib kelinayotgan «Shankar» xalqaro bolalar rasmlari festivalida ishtirot etib, kumush medal sohibi bo'ldi. Chexiya Respublikasida o'tkazilgan «Liditse-99» xalqaro bolalar ko'rgazmasida maktab-internat o'quvchilaridan 20 nafari muvaffaqiyatli qatnashib, uchta kumush, bir necha diplom va rag'batalantirish olganchi uchun mazkur internat jamoasi tanloving bronza medali va diplomi bilan taqdirlandi. Bu esa o'quvchilarini yanada ruhlantirib yubordi.

Yaqinda yana bir xushxabar tarqaldi: maktab-internat o'quvchisi Javohir G'ayratov Birlashgan Arab amirliklarida bo'lib o'tgan xalqaro bolalar ko'rgazmasida o'zining ijodiy ishlari bilan qatnashib, laureat bo'lib qaytdi.

– Bu yutug'imi Mustaqilligimizning 20 yilligiga sovg'am, deb bilaman, – deydi quvonib Javohir. – Kelgusida yurtim taraqqiyoti uchun bor kuch-g'ayratimni ayamayan.

Biz ham maktab-internatning Javohir kabi iqtidorli o'quvchilariga havas qilib, niyatizing ijobat bo'lsin, dedik.

## GULASAL



Gulasal Isomova Shahrisabz tumanidagi 30-maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi. Uning yozgi ta'tili mazmunli o'tmoqda. Opasi Kumushdan pazandalik sirlarini o'rganib oldi. Endi u o'rtoqlari Dilnoza, Xusnora va Kumush bilan «Kim chaqqon va pazanda?» musobaqasini o'tkazishga ham tayyor. Qiz bolaning pazanda, sarishta bo'lgani qanday yaxshi!



Yurtimiz bo'ylab Mustaqilligimizning 20 yilligiga qizg'in tayyorgarlik ko'rileyotgan ayni kunlarda muxbirimiz Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida bo'lib qaytdi. U yerdagi tengdoshlarining hayoti va faoliyati bilan qiziqdi. Bugungi sahifamizda qashqadaryolik tengdoshlarining ularning ustozlari haqida hikoya qilinadi.

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 2-umumta'lim maktabiga kirib borganimizda, soat sakkiz ham bo'Imagan edi. Ammo farroshlar ta'til bo'lishiga qaramasdan, o'z ishini allaqachon qoyilmaqom qilib tugatib ketishgan ekan. Yo'laklarning ozodligi, saranjomsarishtaligi dilimizni yaratdi.



## O'Z KASBINING USTASI

– Ta'tilda ham bir nechta to'garaklarimiz faoliyat yurityapti. Jumladan, stol tenmisi, futbol ishqibozlari uchun maktabimizda sharoit yaratib berilgan, – deydi maktab direktori Mirshod Achilov. – Otam Sohib Achilov 43 yil ta'lim sohasida xizmat qildilar. Shu maktabning qurilishida shaxsan ishtirot etib, uzoq yillar direktor vazifasida faoliyat yuritdi. Bugungi kunda otamning ezgu ishlari davom ettirayotganidan behad xursandman. Maktabning sobiq o'quvchilarini Dilorom Saidova matematika, Mehri Qodirova rus tili, Alisher Suyunov tarix fanlaridan o'quvchilarimizga saboq bermoqdalar. Bu ro'yxatni yana davom ettirishim mumkin. Fidoyi ustozlarimiz boshchiligidagi 25 sotix tashlandiq joyini obod qilib, terak ekdk, 10 sotix yerga esa mevali daraxtlar ekib, bog' yaratdi. Bundan tashqari, kartoshka ekib, 10 tonnadan ziyod hosil oldik. Bu ibratlari ishlarimizda o'quvchilarimiz mehnatini ham alohida ta'kidlagan bo'lardim.

Maktab direktori Mirshod akaning o'qituvchi-yu o'quvchilaridan ko'ngli to'lib so'zlashidan anglatidiki, demak, rahbarning o'zi yaxshi tashkilotchi, bolajon, o'z kasbinining ustasi.



## 920 DIAMETRLI DARAXT

Eni 920 diametri daraxtni ko'rghanmisiz? Ko'rmagan bo'lsangiz, Kitob tumanidagi Oqsuv qishlog'iiga yo'l oling. U yerdagi Oqsuv ziyoratgohida ana shunday ulkan tut daraxti bor. Tuning yoshi VI asr bo'lib, uning diametri o'quvchilar tomonidan o'changan ekan.



– Bu joylar Mustaqilligimiz tufayli obod bo'lmoqda, – deydi Shayx Shamsiddin kulol jome masjidi imom xatibi Ayubxon Qudratov. – Deyarli har kuni o'quvchilar o'z ustozlari, ota-onalari bilan ziyoratgohga kelishadi. Ular qishloqlari tarixi, yaxshi insonlarning ezgu ishlari bilan tanishadilar, xulosa qiladilar, ibrat oladilar. O'z yurtlariga munosib farzand bo'lishga intiladilar.

# SHAHRIXONDAN

Ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, tahririyatimizga kelayotgan xatarning keti uzilmayotganidan behad mammunumiz. Maktublar orasidagi kattagina xatjild e'tiborimizni tortdi. Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi Naynovo qishlog'idan kelgan ushbu maktubni

51-maktab qoshida ayni ta'til kunlarida ham faoliyat ko'rsatayotgan «Nishona» to'garagi a'zolari yo'llashibdi. Unda ustoz-u shogirdlar ijodidan talaygina namunalar bo'lib, mazkur bilim dargohining 7-«A» sinf o'quvchisi Shahzodek.

Abdusalomovning ustoz haqidagi iliq fikrlari ham bayon qilingan.

## ONAM

Ko'nda Quyosh, Oyimsiz,  
Sharqiragan soyimsiz,  
Mening borlig'im, bog'im,  
Siz mehribon oyimsiz.

Nodirbek  
AHMADJONOV,  
3-«A» sinf o'quvchisi

## XAT KELDI

### TABASSUM QIL

Kayfiyatning bo'sin chog',  
Yurgin hamisha quvnoq.  
G'araz niyatli bo'lma,  
Birovg'a qazima choh.  
Kattalarni hurmat qil,  
Do'sini to'g'ri tanlay bil.  
Bo'lay desang sen komil,  
Nasihatga amal qil.  
Kamsuqum bo'lgin doim,  
So'zlagin sen muloyim.  
Tabassum-la yashasang,  
Iqboling kular doim.



Bu tun boshqacha kechdi,  
Birdan uyg'onib ketdim.  
Uyqum topolmay sira,  
Tun poyoniga yetdim.  
Ne qilarim bilolmay,  
Yuribman u yon-bu yon.  
Uyqumni topay desam,  
U «qochar» misli quyon.  
Barchasiga sababchi,  
Dilimni qilgan xufton.  
Keyin bildim, u ekan,  
O'sha kichkina sichqon.

Po'latjon BOYNAZAROV

### USTOZ HAQIDA SO'Z

Ustozimiz Po'latjon Boynazarov maktabimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lib ish boshlaganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Lekin shu oz fursat ichida bilim maskanimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Ustozimiz Po'latjon aka tasviriy san'at fanidan saboq bersalar-da, yaxshigina she'riyat shaydosini ekanlar. U kishi tashkillashtirgan «Nishona» to'garagi sabab, o'quvchilarimiz orasida she'riyat ixlosmandlari, kitobxon o'quvchilar soni ortdi. Hozirda ijodkor o'quvchilarimizning she'riyat mashqlari turman hamda viloyatning «Ziyo» gazetalarida mutazam chop etilib turibdi. Izlanuvchan ustozimizning o'zлari esa 2010-2011-o'quv yilida «Yil o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ishtirot etib, viloyatda 2-o'rinni qo'lga kiritildilar.

Po'latjon akani serqirra ijodkor desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bayram va tadbirlarda o'zлari doira chalib, qo'shiq aytadilar, barchamizni «Andijon polkasi»-yu «Lazgi»ga o'ynatib, davralarga fayz kiritadilar.

Ustozning ajoyib bir odatlari bor: qaysi sinfda davomat pasayib ketsa, o'sha sinfda qiziqlari o'yinlar tashkillashtiradilar, darslarni ham o'yin tarzida o'tib, o'quvchilarini darslarga qiziqtirishga intilladilar.

Yaqinda Po'latjon aka «Qo'g'irchoq teatri» tashkil qildilar. Shuningdek, «Tasviriy san'at» to'garagida bizga «pape-mashe» usulida qo'g'irchoqlar tayyorlashni o'rgataytilar. Qo'g'irchoqlarimiz tayyor bo'lgach, Mustaqilligimizning 20 yilligi arafasida tumandagi maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarining quyi sinf o'quvchilarini davrasida teatr tomoshalarini qo'yishni rejalashtiriyapmiz.

Darvoqe, yodimdan ko'tarilay debdi, «Tong yulduzi»ning Andijon viloyatiga bag'ishlangan maxsus sonida «Kitob» nomli she'rimming chop etilishida Po'latjon akaning hissasi katta.

Bugun ham to'garagimiz a'zolari, shuningdek, ustozimiz ijodidan namunalar yuboryapmiz. Ular gazeta sahifalarida e'lon qilinsa, behad mammun bo'laradi.



### RASMLAR DOSTLAR KO'RGAZMASI

Sarvinozxon ABDUSALOMOVA



Elmurod A'ZAMJONOV



Mano, qadrli o'quvchilar, shahrixonlik yosh qalamkash tengoshilaringiz ijodidan namunalar o'qidingit. Ular yo'llagan rasmlardan tashkil qilingan «Rasmlar ko'rGAZMASI». Sizga ham manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

FERUZA tayyorladi

## BIR NIHOLMAN

Yurtimning bog'larini,  
Jannatga o'xshataman.  
Bog'lardagi g'unchani,  
O'zimga o'xshataman.  
Yurtimning bog'larida,  
Ochilib yursam deyman.  
Unga chiroy baxsh etib,  
Ko'rk bo'lib tursam deyman.  
Xolmurod A'ZAMJONOV,  
5-«A» sinf o'quvchisi

## NAYNAVO QISHLOG'IM



O'tmislardan sado beradi,  
Tuprog'i zar, ma'vo yeladi,  
Dilga yaqin navo keladi,  
Nayga navo bergen qishlog'im.  
Subhidamda qoshida hilol,  
Kelinlari darvoza ochar.  
Ostonasin gulga to'ldirib,  
Xushbo'y isin atrofga sochar.  
Dalsida unar bug'doyi,  
Nish uradi ekinlar shohi.  
Mehnatidan ko'ngillar to'lib,  
Dilga da'vo berar qishlog'im.  
Bobolari duolar qilar,  
Ro'zg'origa baraka tilar.  
Kindik qonim to'kilgan yurtim,  
Naynavoning iqboli kular.

Sarvinoz ABDUSALOMOVA,  
8-«B» sinf o'quvchisi

## YAGONAM

Onajonim yagonam,  
Siz men uchun bir donam.  
Qalbimning quyoshisiz,  
Dardimning davosisiz.  
Yolg'iz qolsam yo'ldoshim  
Har bir ishda yo'lboishim,  
Yagonamsiz, onajon!



Kumush VAFOYEVA,  
Xorazm viloyati,  
Shovot tumanidagi maxsus iqtidorli  
bolalar maktabi o'quvchisi

GO'ZAL  
MASKANIM

Qadrdon maktabim, go'zal maskanim,  
Men uchun muqaddas, aziz dargohim.  
Sendan oldim butun olam sirlarini,  
Sen-la quvonarman, poklanar ruhim.

Bag'ringda ulg'ayib kamol topdim men,  
Qayda bo'lmay, seni mudom maqtagum.  
Ma'rifat qasriga qiyoslay seni,  
Bizga bilim berib, tolma, maktabim.

Fotima NARZULLAYEVA,  
Sergeli tumanidagi 318-ixtisoslashirilgan  
bog'cha-maktab o'quvchisi

BUNDAY MAKON  
QAYDA BOR?

Chiroyiga barcha lol,  
Suvlari tiniq, zilol,  
Dehqonin noni halol,  
Jannatga o'xshash diyor,  
Ayting do'stlar, qayda bor?  
Nok, anorli bog'i bor,  
Osmon qadar tog'i bor,  
Do'sti ko'p, o'rtog'i bor,  
Tilidan tushmas alyor,  
Qo'shiqli yurt qayda bor?  
Oltin, kumush koni bor,  
Yerda hosili bisyor,  
Aytgum takror va takror:  
Har jahhada zo'r, ilg'or,  
Shunday makon qayda bor?



Farangiz XOLBO'TAYEVA,  
Samarkand viloyati, Paxtachi tumanidagi  
21-umumta'lum maktabi o'quvchisi

## GULLAR

Atirgulga tegmanglar,  
Qomatini egmanglar.  
Lolalar qirda alvon,  
Uni e'zozla, Javlon.  
Gullar bizning do'stimiz,  
Yopar kam-u ko'stimiz!



Pokizabonus RAHMATOVA,  
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi  
242-umumta'lum maktabi o'quvchisi

DARYO BILAN  
DILLASHUV

Mohina Ibragimova Surxon  
vohasining Sariosiyo tumanidagi  
go'zal, purviqor tog'lar bag'rida  
joylashgan Hisorak qishlog'ida  
tavallud topgan Bolaligidan uno'ziga



mahliyo etgan yurting salobatlari  
tog'lari-yu bulbullari xonishi hamda  
daryolarning ayqirib oqishi uning  
zavqiga zavq qo'shgan bo'lsa,  
ajabmas, Mohinaning tuman, viloyat  
miqyosida o'tkazib kelinayotgan  
barcha tanlovlarda o'z ijod namunalari  
bilan ishtirot etib kelayotgani ana shu  
zavqning samarasini bo'lsa, ne ajab?!

U ko'proq daryo bo'yida o'tirib  
rasm chizishni yoqtirarkan. Go'yo daryo bilan  
dillashayotgandek. Mohinaning ijodida ko'proq qishloq hayoti,  
tog'liklarning turmush tarzi o'zining  
yorqin ifodasini topadi. Sariosiyo  
tumanidagi 48-umumta'lum  
mactabining 9-sinf o'quvchisi  
Mohinaning chizgan rasmlarini ko'rib,  
biz ham hayratlandik. Chizigilaridagi  
yorqin ranglar jilosida tabiatning eng  
nozik, nafis qirralarini ochib berishga  
intilayotgan qizimizga, ijoding tog'lar  
kabi yuksalsin, degimiz keldi.

Axtamqul KARIM



## Muhokama uchun mavzu

## KITOB YAXSHI SOVG'A...MI?



Shu payt eshik qo'ng'irog'i  
jiringlab, yana mehmonlar  
kelib qolishdi. Bolakayga  
tog'asi o'zi yurar mashina  
sovga qildi. Birpasda  
yirtilgan kitob ham  
unutildi. Kichkintoyning  
ko'zlarini quvonchdan por-  
ladi. Mehmonlar orasida  
yoshrog'i men bo'lganim  
uchun bo'shagan idishlarni  
olib, oshxonaga chiqdim. Ne  
ko'z bilan ko'rayki, haligi kitob  
chiqindi qutisida yotar, hatto  
ustiga ovqat qoldiqlari ham to'kilgandi.

Mehmonxonaga qaytib kirolmadim, yuragimga  
nimadir sanchilgandek bo'ldi va xayrashmay  
xonadonni tark etdim. Shu voqeasabab bo'ldi-  
yu, qo'limga qalam oldim, kitob haqida nimadir  
yozishga ahd qildim.

Donishmandlar kitobni do'st, sirdosh, xazina  
deb bejizga aytishmag'an. Haqiqatan ham kitob  
yaqin do'sting, sirdoshing, jismingga ruhiy quvvat  
beruvchi, yaxshilik, mehr-oqibat, saxovatga  
bosholvchi eng ishonchli hamrohingdir. Meni  
kitobga oshno etgan ota-onam hamda aziz  
ustozim Dildora Abdullayevadan bir umr  
minnadtorman. Kitobni do'st bilib, ko'p narsani  
angladim, o'zimni va o'zgalarni tanidim. Dunyo  
mamlakatlari, millatlar, elatlar haqida tasavvurim  
oshdi.

Kitobga oshno bo'lgan kishidan yomonlik  
chiqmaydi. Xalq ertaklari va dostonlarini sevib  
o'qigan bolaning dunyoqarashi keng, orzulari mo'1  
bo'ladi, hamisha qahramonlik, mardlik, birovlarga

yaxshilik qilishga talpinadi. Shunday ekan, bolalik,  
o'smirlik faslining eng ishonchli, eng sodiq  
murabbiysi kitobdir.

Bugun qay bir kitob do'koniga kirmang, bir-  
biridan qiziqarli, chiroyli muqovalangan lotin  
alifbosidagi bolalarbop kitoblarga ko'zingiz  
tushadi. Ayniqa, bolalarning sevimli sho'er va  
yozuvchilari Xudoibergi To'xtaboyev, Anvar  
Obidjon, Miraziz A'zam va boshqalarining asarlari  
bolalar qalbiga ezzulkur urug'ini sochmoqda.

Yaqinda qiziq bir voqeanning guvohi bo'ldim:  
poystaxtimizni tomosha qilgani kelgan mehmonlar  
«Sharq ziyokori» do'koniga yonida bahslashib  
qolishdi. Kimdir bolalarimizga kitob olaylik desa,  
boshqasi: - Yo'q, uyimizda kompyuter bor-ku,  
qancha kitob desangiz, unda tiqilib yotibdi, yaxshisi,  
o'yinchoq, rasmi maykalar olaylik, - dedi.  
Ayollardan biri o'jarroq ekanmi, so'zidan qaytmadi:  
do'kondan bir quchoq kitoblar bilan chiqdi.  
Hamrohlari esa atrofdagi do'konlardan, rangli  
pufaklar, o'yinchoqlar sotib olishdi. Ular xaridlarini  
bir-birlariga ko'sratayotganlarda pufaklardan ikki-  
uchtasi «paq-paq» etib yordidi. Shu payt chiroyli  
o'yinchoqni dugonasiga «ko'z-ko'z» layotgan ayol  
darrov uni sumkasiga solib qo'ydi. Chamasi u  
o'yinchoqning buzilib qolishidan qo'rqi. Shunda  
barcha ayollar kulib yuborishdi. Kimdir: «Qumixon  
balo chiqdi, u hammamidan aqli ekan, olgan  
sovga'asi na yoriladi, na buziladi».

Ha, ko'rib, eshitganim ushbu voqeasabab  
ham o'ylatadigan, o'rganadigan ibrat edi.  
Bu haqida siz qanday fikrdasiz, aziz muxlislar?  
Bizga yozib yuboring.

Shohjahon RAUPOV

Bir tanishim uyiga taklif qildi:  
o'g'ilchasinig tug'ilgan kuni ekan.  
Ataylab kitob do'koniga borib,  
unga bolalarbop ikkita kitob sotib  
oldim. Eshikdan istiqbolimga  
yugurib chiqqan bolakayga  
sovg'amni topshirdim. Nazar-  
rimda, kichkintoydan ko'ra  
ko'proquning onasi sovg'aning  
nimaligiga qiziqardi. Chiroyli  
muqovalangan kitoblarni ko'rib,  
ona labini burdi, bola esa  
sevinchini yashirolmay, maqtan-  
gani o'toqlari oldiga yugurib ketdi.

Dasturxon to'kin, yeb-ichib o'tirgandik, bir  
payt bolakayning zorlanib yig'lagani eshitildi.

Ota-ona uning qoshiga oshiqishdi:

- Ukm kitobimni yirdi, - zorlandi bolakay.

- Uni hali o'qimagandim...

- Bitta kitobga shunchami, yirtilsa, sadqayi-  
sar, ertaga boshqasini olib beraman, - bolasimi  
yupatgan bo'ldi ona: - Qo'rqb ketibman, yiqilib  
biror joying lat yebdimi deb.

- Yo'q, menga shu kitob kerak, o'qituvchimiz  
uni ta'tilda o'qib kelinglar, degan. Sizga qancha  
yalindim, olib bermadingiz, dadam ham do'konda  
bu kitob yo'q, degandilar.

Nihoyat, ota murosa yo'liga o'tdi:

- Amakingga aytamiz, yangisini olib beradi.

Bolakay shu gapni kutib turgandy yirtilgan  
varaqlarini dastalab yonimga keldi. Ularни  
yelimlab bermoqchi bo'ldim, ammo bu harakatim  
tanishimga yoqmadи.

- Bitta kitobni deb o'tirishni buzmaylik.

**Muslimbekning dadasi el orasida «Rembo» polvon nomi bilan tanilgan. Chindan ham polvonmisan polvon-da! Kecha uning polvonlik mahoratini poytaxtimizning G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'iadi milliy sirk tomoshalarida ko'rib, hayratimiz oshgandan oshdi. Uch yoshli nabiram Jahongirmirzo polvonning harakatlaridan ta'sirlanib, oilamiz a'zolariga har kuni «sirk» tomoshasini qo'yib bermoqda.**

## UYIMIZDA «SIRK»

Ayniqsa, o'zi tengi Muslimbekning o'z vaznidan og'irroq toshlarni ko'tarishi, baland dorda langar yordamida sakrab-sakrab yurishlari, akrobatik mashqlarni juda tez va yengil bajarishi, odamlar bilan to'la «Damas» avtomashinasini tortishi, uch gazli katta illonni bo'yniga o'rashini ko'rib, uning ham polvon bo'lgisi kelib qolgandir-da.

Aziz bolajonlar! Bu tomoshalar haqida o'qib, siz ham xuddi Jahongirmirzo kabi polvonlikni havas qildingizmi? Lekin qanday qilib polvon bo'lish mumkinligi, uning mashaqqatlarini ham bilasizmi?

Keling, unda polvonlik sirlari va mehnatlari haqida quvasoyli'k polvon Qodir aka Maraimovning hikoyasini tinglaymosham!

— Xalq orasida menga «Rembo» deb nom qo'yishgan. Yurish-turishim, qaddi-qomatimga qarab shu nomni berishgan. Polvonlar naslidan emasman. Lekin bolaligimdan sportni yaxshi ko'rardim. Har tong badantarbiya mashqlarini bajarishni odat qilganimdanmi, muskullarim kuchga to'lib borardi.

... Bir kuni Farg'onona shahrida yashovchi ammannikiga mehmonga bordim. Ularning uyida ijara yashovchi Ali polvon bilan tanishdim. U kishi qiziqishimni payqab: «Polvon bo'lmoqchiman?» deb so'radi.

Uyalibgina bosh silkitudim. Shunday qilib, Ali polvon mening birinchi ustozimga aylandi. Yetti yil Ali polvonning sabog'ini oldim. So'ng, ularni mustahkamlash uchun xalqimizning tanqli polvoni Tursun Ali akaga shogird tushdim. Mashhur polvondan ham o'n yil polvonlik sirlarini o'rgandim. Sahnada harakatlanish hadisini u kishining o'g'li Ravshan hojidan oldim. Hozir oilavity milliy sirk guruhi rahbariman. Bolajonlar, sizlar mendan o'g'lim Muslimbekning qanday qilib jajji polvon bo'layotganligi haqida so'ragandingiz-a?

Uyalibgina bosh silkitudim. Shunday qilib, Ali polvon mening birinchi ustozimga aylandi. Yetti yil Ali polvonning sabog'ini oldim. So'ng, ularni mustahkamlash uchun xalqimizning tanqli polvoni Tursun Ali akaga shogird tushdim. Mashhur polvondan ham o'n yil polvonlik sirlarini o'rgandim. Sahnada harakatlanish hadisini u kishining o'g'li Ravshan hojidan oldim. Hozir oilavity milliy sirk guruhi rahbariman. Bolajonlar, sizlar mendan o'g'lim Muslimbekning qanday qilib jajji polvon bo'layotganligi haqida so'ragandingiz-a?

**Bizning oromgoh**

**MUKOFOTGA  
SHIRIN KULCHA**

Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi Yusufxona qishlog'ida joylashgan «Chotqol» oromgohini ko'phililingiz yaxshi bilasiz. Axir bu maskanning havosi toza, tabiat xushmanzara-da.

To'rt mavsumga mo'ljallangan bolalar sog'lomlashtrish oromgohimizda 16 ta guruh faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda yurtimizning qadimi shahri Buxoro, Korazm va Qoraqalpog'iston Respublikasidan kelgan bolalar ham hordiq chiqarishdi.

Ertalardan musiqa sadolari bilan uyg'onamiz, yuz-go'llarimizni yuvgach, badantarbiya mashqlarida chiniqamiz. Oshxonadagi nonushtadan so'ng, bizning kun tartibimiz boshlanadi. To'garaklar, kutubxona, ko'rik-tanlovlarda qatnashamiz. Uch kun davom etadigan spartakiadada bellashamiz. Eng sevimli mashg'ulotimiz suv havzasida cho'milish. Oshpazlar mahorai bilan tayorlagan kattakon shirin kulcha yutuqlarimiz mukofoti bo'ldi.

Aziza YO'LDSHEVA, kutubxona mudirasi

# YAXSHI

Qadrli yosh kitobsevarlar!

Bilmanbai bo'lgan kitoblarni sevib mutolaa qilishingizni yaxshi bilaniz. Yozgi ta'til kunlarida yaxshi kitoblar bo'lsa, ayni muddao bo'lardi, shunday emasmi? Quyida «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashrigotida chop etilgan yangi, qiziqarli kitoblar haqida to'xtalmoqchimiz.

## KITOBALAR



**«BUYUK AJDODLARIMIZ»** deb nomlangan kitobda Turon, Mova-rounnahr zaminida yashab o'tgan ulug' bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz haqida yozilgan. Ular orasida nomi uzoq yillarda mobaynida tillarda doston bo'lib kelgan xalq qahramonlari, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashgan zabardast sarkardalar, jahonshumul ahamiyatga molik davlat va din arboblari, umuminsoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir olimlar bor.

Ushbu kitob Siz yoshlarga, buyuk siymlarimiz haqida ma'lumot olishni istagan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

«Mening birinchi ensiklopediyam» ruknida nashr etilgan «KOINOT» kitobida Siz Koinot, Yer, Geografiya bo'yicha o'zingizni qiziqitgarni savollaringizga javob olishingiz mumkin. Jumladan, kitobning «Koinot» bo'limida: «Koinot qanday paydo bo'lgan? Yer qayerda joylashgan? Koinota qancha yulduz bor? Nima uchun Quyosh chiqadi va botadi? Nima uchun yoz va qish bo'ladi? Oyda qanday odam yashaydi? Nima uchun Oy kattalashib va kichiklashib turadi? Tutilish nima? Bugun biz koindota nimani ko'ramiz? Yer, Oy, Quyosh qanday paydo bo'lgan? Nima uchun yil fasllari o'zgaradi?» kabi bir qator savollarga javob olasiz.



**«TEXNIKA DUNYOSI»** deb nomlangan kitobda esa texnika va ilmiy kashfiyotlar, mashinalar, poyga avtomobilari haqida ma'lumotlar beriladi. Uning texnika va ilmiy kashfiyotlar bo'limida yosh kitobxonalarimiz ajoyib ixtiolar va mashhur ixtirochilar bilan tanishadilar, shishaning paydo bolishi va undan buyumlar tayyorlash sirlarini bilib oladilar, hozirgi kitoblarining o'tmishdoshlari va yana ko'plab ajoyib buyumlar bilan uchrashadilar.

Kitob rangli suratlari bilan bezatilgan. Shuningdek, unda texnikaga oid so'zlar lug'ati ham berilgan.

## BOR

Dilorom HOTAMOVA



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy hamkatni Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg' armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchi:  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rincbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushbanha kuni chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 31634  
Buyurtma N: J 2433

Ona yurtim, muborak navqiron yoshing,  
Olamni yoritdi nurlu quyoshing

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

O'zbekistonning imkoniyatlariga ishonib, u bilan hamkorlik loyihalarini amalga oshiriyapti.

Erkin tadbirdorlikka keng yo'l ochildi. Yosh tadbirdorlar, fermerlar, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga samarali hissa qo'shmaqdalar. Iste'dodli sportchilarimiz, san'atkori yoshlarimiz ona Vatan dovrug'i olamga yoymoqdalar.

Mehnatsevar, bag'rikeng, saxovatpesha, e'tiqodi mustahkam, ma'niviyati yuksak xalqi bor O'zbekistonning mustaqilligi mangudir. Jonajon yurtimizning buyuk kelajagini qurish baxti hammamizga nasib etsin!

Onam kabi muqaddassan,  
Qalbimda noming Vatan.  
Ko'zlarimga to'tiyodir,  
Sharafing, shoning Vatan!

Zulfizar XUDOYQULOVA,  
Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 3-umuma'l'm  
makiati o'quvchisi

## Pazandalik sirlari

### PAXLAVA

Kerakli masalliqlar:

6 ta tuxum, 250 gramm saryog', 4 osh qoshiq qatiq, 2 piyola un, yarim choy qoshiq ichimlik sodasi, 1,5 piyola shakar, yong'oq, mayiz.

Tayyorlanishi:

6 ta tuxumning oqi sarig'idan ajratiladi. 250 gramm yumshatilgan saryog' bilan 2 piyola un uvalanadi. Tuxumning sarig'iga 4 osh qoshiqda qatiq, yarim choy qoshiq ichimlik sodasi solib aralashtiriladi va uvog'ining ustiga quyib, yumshoq xamir qoriladi. Xamir tindiriladi va 3 bo'lakka bo'linadi. Tuxumning oqi esa bir yarim piyola shakar bilan ko'prtiriladi. Unga 1 piyola tozalangan yong'oq, 1 piyola mayiz solib aralashtiriladi. Gaz patinisiga bir zuvala xamirni yoyib, kreml qorishmaning uchdan bir qismi suriladi. O'rta olovda 25 daqqa mobaynida pishiriladi. Qolganlari ham shunday pishiriladi.

Kremiga:

250 gramm yumshatilgan saryoqqa quyultirilgan sut solib krem tayyorlanadi va pishgan mahsulotning orasiga surtiladi. Ustidan eritilan shokolad quyladi.

Yogimli ishtaha!

ZUBAYDA tayyorladi



Istiqlol, shubhasiz, buyuk ne'mat.  
Ko'hna va hamisha navqiron Vatanimiz  
uzra ozodlik bayrog'i hilpiray  
boshlaganiga yigirma yil bo'ldi.

## OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

Ona yurtim, muborak navqiron yoshing,  
Olamni yoritdi nurlu quyoshing.

«Vatan» atamasi arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi. Alisher Navoiy bu so'zni ona yurt, tug'ilib o'sgan joy, maskan, manzil ma'nolarida ishlatsat.

Prezidentim Islom Karimov rahbarligida xalqimizning milliy tarixiy turmush tarzi, urf-odatlar asosida o'z taraqqiyot yo'limizni belgilab oldik. Yer yuzidagi va yer ostidagi barcha boyliklarimiz xalqimizga xizmat qilmoqda. Tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz qayta tiklandi. O'zbekiston xalqaro maydonda ko'plab davlatlar bilan do'stona munosabat o'rnatib, har tomonlama hamkorlikni yo'liga

qo'ydi. Endilikda O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlangan industrial davlat.

Xalqimiz hamjihatligi tufayli bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, davlatimiz jahonga yuz tutib, olamni mahliyo aylagan diyor ekanligini namoyish etdi. Xususan, qisqa muddatda «Asr mo'jizasi» deya ta'kidlangan «Toshg'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on» Temiryo'lining qurilib, ishga tushirilishi yurtimizning xalqaro salohiyat va qudratga ega ekanligini yana bir bor namoyish qildi. Natijada, ko'plab chet el sarmoyadorlari



*Qadrli singillarim, aslida-ku, har  
birinig pazandasiz. Lekin uning sirlari  
shu qadar ko'PKI, hech kim adog'iiga  
yetolmaydi. Bilmaganlarin ringizni  
o'rganib, bilganlarin ringizni o'rgatib  
borsangiz, foydadan xoli bo'lmaydi.  
Qolaversa, ta'til kunlarida bo'sh  
vaqtinig mo'lligini inobatga olib,  
pazandalik sabog'ini berib  
bormoqchimiz. Bugun Sizlarga ikki  
xil shirinlik tayyorlashni  
o'rgatmoqchiman.*


### O'RAMA KULCHA

Kerakli masalliqlar:

250 gramm saryog', 2 osh qoshiq qatiq, 2 osh qoshiq qaymoq, yarim choy qoshiq ichimlik sodasi, 2 piyola un.

Tayyorlanishi:

250 gramm yumshatilgan saryog' bilan 2 piyola un uvalanadi. 2 osh qoshiq qatiq, 2 osh qoshiq qaymoqqa ichimlik sodasini solib aralashtiriladi va yumshoq xamir qoriladi. Xamir yarim soat muzlatgichda tindirilib, 5 bo'lakka bo'linadi. Zuvalalar juva yordamida alohida yoyilib, varaqi kesadigan «dir-dir» yordamida 8 bo'lakka bo'lib, qo'l yordamida o'raladi va pastroq olovda pishiriladi. Orasiga yong'oq, mayiz o'ralsa, yanada mazali bo'ladi. Ustiga qand upasi sepiladi.



Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushbanha kuni chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.

ISSN 2010-6092  
Adadi - 31634  
Buyurtma N: J 2433